

## YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALAR HUQUQI OLIY MAQOMDA

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar  
institute. Yurisprudensiya ta'lim  
yo'nalishi 2-kurs talabasi*  
**Odilova Hilola Avazjon qizi**

**Annotasiya:** *Ushbu maqola mamlakatimizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda sog'lom va barkamol avlodni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoit va ma'naviy-axloqiy muhitni ta'minlash masalalari davlat siyosatining asosiy yo'nalishi etib belgilanganiga qaratilgan. Chunki, bolalar kelajagimiz vorislari, millatimiz davomchilari sifatida e'zozlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Bolalar huquqlari bo'yicha vakil, BMT, konvensiya, harakatlar strategiyasi.*

Barcha mamlakatlarda bolalarning quvnoq kulgisi yangrab tursa bu mamlakatining buguniyu, ertasi porloq bo'ladi. Yangi O'zbekistonimizda bugungi kunda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni har tomonlama huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma'nan yetuk va o'z jamiyatiga foydasi tegadigan darajada tarbiyalash borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda 1992-yil 9-dekabrda BMT Bosh Assambilyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bolalarning huquqiy va ijtimoiy maqomini shakillantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Ushbu hujjat orqali O'zbekiston xalqaro konvensiya qoidalari va prinsiplariga rioya etish, bola huquqlarini himoya qilishning milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish bo'yicha majburiyatlarni hamda jahon hamjamiyati oldida javobgarlik masalasini o'z zimmasiga oldi. Ushbu konvensiyaning maqsadi bolalarning mustaqil hayotga tayyor bo'lishi, tinchlik, erkinlik, qadr-qimmat, tenglik va hamjihatlikda voyaga yetishini kafolatlashdan iboratdir. Konvensiya bolalarning yashash va sog'lom rivojlanish, farzandlikka olish borasidagi huquqlar, shuningdek, bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularni himoya qilishda oila va ota-onaning birinchi darajali roli, bolalarga yordam ko'rsatish borasidagi majburiyatlarni tan oladi.

Bugungi kunda "Bolalar huquqining kafolarlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida" va "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshtan ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida ta'limning barcha bo'g'ini hamda tibbiyot sohasi davr ruhiga moslashtrildi. Bunda oilalar manfaatini ta'minlash, navqiron avlodni

milliy an'ana va qadriyatimizga hurmat ruhida tarbiyalash yuzasidan keng qamrovli loyhalarni amalga oshirildi.

Shu bilan birga, bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularni barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlari uchun huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Yangi qarorlar bu tizimdagi islohotlarga shiddat va shijoat bag'ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori bilan Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari - Bolalar huquqlari bo'yicha vakil lavozimi ham ta'sis etildi. Bu esa o'z navbatida beg'ubor bolalarning mustaqil hayotga qadam qo'yilishari uchun yana bir umid bo'ldi desak, adashmagan bo'lamiz. Bolalar huquqlari bo'yicha vakil quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- vakil BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo'yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- bolalar va ularning qonuniy vakillari orasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tushuntiradi, hamda milliy normalar qoidalarini targ'ib qiladi;

- aholi o'rtasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari masalalari bo'yicha huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga ko'maklashadi;

- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining ijrosini o'rganadi;

- imkoniyati cheklangan bolalar, shuningdek, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiya muassasalarini tamomlagandan keyin ularning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashadi;

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi.

Bugungi Yangi O'zbekistonda bolalarning huquq va erkinliklarini qonun bilan himoya qilish va ularning bilim olishi, mehnat qilish huquqi, mulkka ega bo'lish huquqi va boshqa huquqlari kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bolalar mehnatining bola sog'lig'iga, ta'lim olishiga, jismoniy rivojlanishiga va havfsizligiga to'sqinlik qiluvchi har qanday holatlar taqiqlandi. Chunki, bolalar - ertamizning mevalari. Ularni asrab-avaylash, har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish davlat, jamiyat, har bir oila va har bir ota-onaning muqaddas burchidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 11-sentyabrda №ПФ-158 farmoniga asoslanib "O'zbekiston-2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Bugungi kun uchun muhim bo'lgan bu hujjatda bolalarning bilim olishi va maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash borasida ham qator qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, kelasi yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay islox qilish boshlanadi. Prezidentning buyrug'i bilan, kelasi yili 70 ta yangi maktab quriladi, 460 tasi kengaytiriladi. Xususiylar investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurilish loyhalari

boshlanadi, kelasi besh yilda ularning soni 1 mintaga yetkaziladi. Shuningdek, barcha viloyatlarda bepul ovqatlanish tizimi yo'lga qo'yiladi. "Yil boshidan Qoraqalpog'iston va Xorazimda 285 ming nafar boshlang'ich uchun bepul ovqatlanishi tizimi joriy etildi. Bu borada yetarli tajriba orttirdik. Endi, kelasi o'quv yilidan ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etiladi va buning uchun 2,3 trillion so'm ajratiladi", - dedi Shavkat Mirziyoyev. Shu nuqtai nazaridan, Prezidentning ushbu qarori, o'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari asosida sifatli tashkil etish, bolalarning erkin bilim egallashlari uchun qulay sharoitlar yaratish hamda ta'lim tizimini xalqaro ta'lim sifatlariga tenglashtrish uchun tirgak bo'ladi desak, adashmagan bo'lamiz.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, bolalar huquqi, har bir davlatning, har bir jamiyatning asosiy ustini hisoblanadi. Bolalar huquqini himoya qilish uchun amalga oshirilayotgan har bir islohot bolajon xalqimiz, bolaparvar jamiyatimiz ulkan e'tibor va e'tirof bilan kutib olinayotgani bejiz emas. Binobarin, "Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmasligi kerak. Hammasi o'zimizning, O'zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko'rsatsak, ishga, ilmga, kasbu hunarga, ezgu fazilatlarga o'rgatsak, ularning yo'lini ochib bersak, ertaga foydasi o'zimizga, jamiyatimizga tegadi".

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshtan ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi.
4. <https://lex.uz/>
5. [https://t.me/Bolalar\\_ombudsmani](https://t.me/Bolalar_ombudsmani)
6. <https://idum.uz/uz/archives/17612>
7. @talim\_obrazovaniye